

Yangi yoʻnalish boʻyicha parvozlar: Buxoro – Istanbul – Buxoro

2022 26 April

2022-yil 15-maydan boshlab “Uzbekistan Airways” AJ Buxoro – Istanbul – Buxoro yangi xalqaro yoʻnalishi boʻyicha muntazam aviaqatnovlarni yoʻlga qoʻyadi. Parvozlar haftada ikki marta payshanba va yakshanba kunlari amalga oshiriladi.

HY-285 va HY-286 raqamli aviaqatnovlar quyidagi jadvalga muvofiq amalga oshiriladi:

Buxorodan joʻnab ketish: 09:45 (Toshkent vaqti)

Istanbulga yetib borish: 12:25 (Istanbul vaqti)

Istanbuldan joʻnab ketish: 13:55 (Istanbul vaqti)

Buxoroga yetib borish: 20:05 (Toshkent vaqti)

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy saytidan, Uzbekistan Airways Sales filialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilib olish mumkin.